

ZAMONAVIY O'ZBEK JAMIYATIDA DIN VA MA'NAVIYATNING
TUTGAN O'RNI**Turdibekov Ozodbek Ulug'bek o'g'li**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali talabasi

ozodbekulugbekovich7252@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy O'zbekiston jamiyatida din va ma'naviyatning tutgan o'rni, ularning ijtimoiy taraqqiyotdagi ahamiyati hamda yoshlar tarbiyasiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil etiladi. Maqolada O'zbekiston Respublikasida din va ma'naviyat sohasida olib borilayotgan siyosat, davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, diniy bag'rikenglik, milliy qadriyatlar va madaniyatning uyg'unligi yoritilgan. Shu bilan birga, muallif dinning jamiyatda ijobiy muhitni shakllantirishdagi o'rni, ma'naviy yetuklik va ma'suliyat hissini oshirishdagi roli haqida fikr yuritadi. Tadqiqot asosida xulosa qilib aytiladiki, din va ma'naviyat jamiyatida barqarorlik, totuvlik va axloqiy yuksalishning muhim omillaridan biridir.

Din azaldan inson va jamiyat hayotining ma'naviy asosi, poydevori bo'lib kelgan. Din vositasida insonning biologik tabiati, hayvonot olami bilan umumiy jihatga ega bo'lgan fiziologik mayllari, ehtiyoj va instinktlari jilovlandi, ularga insoniy qiyofa berildi. Din insoniyat ma'naviy hayotining tarkibiy qismidir. O'zbekiston Respublikasida ziyolilar oldiga ma'naviy barkamol insonni shakllantirish vazifasi qo'yilgan bir paytda din masalasini chetlab o'tish mumkin emas. Din – e'tiqod hamdir, bu esa har bir kishining shaxsiy ishi. Lekin shaxsni xar qanday missioner tashkilotlar ixtiyoriga ham tashlab qo'yib bo'lmaydi. Ozod jamiyatda har bir inson dinga o'z shaxsiy munosabatini belgilab olishi uchun unga har tomonlama, boy, xolis-ilmiy axborot zarur. Bunday axborot ko'p qirrali bo'lmog'i, birovning g'arazli sharhisiz asl matnlar shaklida bo'lsa maqsadga muvofiqdir. Eskirgan ma'lumotlar asosida mutaxassis bo'lmagan mualliflar tomonidan yozilgan asarlar hozirgi zamon axborot

erkinligi va uning etib kelishi oson bo'lgan sharoitlarda o'quvchilarning ko'z o'ngida mazkur mualliflarning obro'sizlanishiga yoki o'quvchini noto'g'ri tasavvurga ega bo'lishiga olib keladi. Din va qonun o'zaro munosabatlarini yaxshi bilish demokratik jamiyat poydevorini

mustahkamlaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi va «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonuni turli diniy jamoa a'zolarining huquqlari, majburiyatlari haqida to'la ma'lumot beradi. Xususan; Konstitutsiyamizning 31-moddasida "Hamma uchun vijdon erkinligi insonligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi". O'quvchilarda qonunga hurmat hissini, o'zininggina emas, boshqalarning ham diniy his-tuyg'ularini hurmat qilish, tushunishga harakat qilish, o'z shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga tazyiq bilan o'tkazish g'ayriqonuniy xatti-harakat ekanligi, jamoat joylarida diniy masalalarda zo'ravonlik, tajovuzkorlikka yo'l qo'ymaslik dunyoqarashini shakllantiradi. Barchamizga ma'lumki, din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, xaq va xaqiqat va adolat to'g'risidagiorzu armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustaxkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir. O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga kirib borayotgan bir sharoitda uning fuqarolari turli konfessiyalar vakillari bilan muloqot etishning yuksak madaniyatiga ega bo'lishi ham juda tarixi xalqlar tarixi bilan bevosita bog'liqdir. Binobarin, jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida iste'dodli, qobiliyatli olim va shoirlardan iborat xalq farzandlari etishib chiqib o'z ilg'or fikrlari bilan din, fan va madaniyatning turli sohalarini rivojlantirib hurfikrlik mazmunini boyitganlar. Dinmuayyanta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlar faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi. U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tariqasi, uni idrok etish usuli, olamda insoniyat paydo bo'lgandan to bizgacha bo'lgan davrlarni ilohiy tasavvurda aks etishidir. Din komil insonni tarbiyalashda salmoqli tarbiyalovchi qudratga ega bo'lgan ma'naviy-axloqiy kuchdir. Din umumiy nuqtainazargako'ra ishonch tuyg'usidir. Bu tuyg'u insonning eng

teran va go'zal ruhiy-ma'naviy ehtiyojlaridan biridir. Dunyoda dini, ishonchi bo'lmagan xalq mavjud emas. Xalq dinsiz, biron-bir narsaga ishonchsiz yashay olmaydi. Sostiologik nuqtai-nazarga ko'ra din jamiyat uchun zaruriy narsa, ijtimoiy hayotning ajralmas qismidir ijtimoiy munosa. Turli madaniyatga mansub aholi vakillari o'zaro ahil-inoq yashab kelayotgan O'zbekistonda milliy va diniy bag'rikenglik hukm surmoqda. Bag'rikenglik turli millat va elatga daxldor kishilarning, turli xil diniy e'tiqodli insonlarning bir zamin, yagona Vatan, bir yurt, bir hududda oliyjanob g'oya, orzu-umid, maqsad va niyatlar yo'lida hamkor, hamfikir va hamjihat bo'lib yashashni anglatadi.

Davlat va din o'rtasidagi munosabatlarda ta'lim bilan bog'liq jihatlar ham e'tibor qaratish lozim. O'zbekiston davlat ta'lim tizimini har qanday diniy konfessiyalarning ta'siridan xoli bo'lishini belgilagan. Unga ko'ra, respublikada davlat ta'lim tizimi (maktab)ning har qanday konfessiya yoki diniy e'tiqod ta'siridan xoli, shu bilan birga, diniy e'tiqodga ham qarshi emas. Bu esa, davlat ta'lim tizimida diniy fanlarning ta'lim dasturlariga kiritilmasligini anglatadi. Chunki O'zbekistonda maktab o'quvchilarning e'tiqodiy qarashlaridan kelib chiqib muayyan toifalarga ajaratilmagan. Shunday ekan, bir sinfda islom yoki boshqa turli dinlarga e'tiqod qiluvchi o'quvchilar bilan birga ateistik qarashdagi dahriy fuqarolar ham o'qishi mumkin. Bunday vaziyatda diniy fanlarni o'qitish bilan bog'liq o'ziga xos muammolarning kelib chiqishi tabiiy.

Bundan tashqari, O'zbekistonda davlat va din munosabatlaridagi yana bir qoida diniy tashkilotlar faoliyatining davlat tomonidan moliyaviy ta'minlanmasligidir. Bu masala "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlari to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida "Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatini moliyalashtirmaydi va dinga e'tiqod qiluvchilarning din bilan bog'liq his-tuyg'ularini haqoratlaydigan faoliyatga yo'l qo'ymaydi" degan qoida asosida qonuniylashtirilgan.

Shuningdek, diniy tashkilotlarning professional xodimlari saylab qo'yiladigan vakolatli davlat organlarida ish faoliyatini olib borishlari ham taqiqlanadi. Xususan, diniy soha vakillari qonun chiqaruvchi hokimiyatda deputat sifatida ish yuritishi, respublika prezidentligiga saylovlarda o'z nomzodini qo'yishlari qonunchilikka ko'ra

taqiqlanadi. Bu qoida ham davlatning dunyoviyligini ta'minlash yo'lida joriy etilgan qoida sanaladi.

O'zbekistonda din va diniy tashkilotlar bilan bog'liq munosabatlarni tashkil etishda quyidagi qoidalarni zaruriy prinsip sifatida belgilagan:

- millati, jinsi va fuqaroligidan qat'i nazar barcha uchun vijdon erkinligining kafolatlanishi;
- barhaning diniy e'tiqodidan qat'i nazar qonun oldida tengligi;
- rasmiy hujjatlarda dinga munosabatining aks etmasligi;
- bir din yoki diniy e'tiqodga ustunlik yoki cheklolarning belgilanmasligi;
- diniy tashkilotlar va davlat organlari faoliyati o'zaro bir-biriga aralashmasligi;
- davlat diniy konfessiyalar zimmasiga davlat funksiyalarini yuklamasligi va qonunga zid bo'lmagan faoliyatiga aralashmaydi;
- davlat diniy tashkilotlarni moliyalashtirmasligi;
- diniy ruhdagi siyosiy partiya va jamoat birlashmalarning tuzilishiga yo'l qo'yilmasligi;
- davlat diniy konfessiyalar o'rtasida o'zaro hurmat va hurmat o'rnatishga ko'maklashishi, adovatni oldirishga yo'l qo'ymasligi;
- davlat ta'lim tizimiga diniy fanlarning kiritilmasligi;
- barcha uchun dunyoviy ta'lim olish huquqining ta'minlanishi.

O'zbekistonda davlat va din o'rtasidagi munosabatlarning belgilanishida asosiy e'tibor qaratilgan masalalar davlatning dunyoviy tamoyillarini ta'minlash, fuqarolarning vijdon erkinligi bilan bog'liq huquq va erkinliklarini kafolatlash, diniy tashkilotlarning qonun doirasidagi faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish hamda jamiyatda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashdan iboratdir. Bu esa, tinchlikparvar O'zbekistonda fuqarolarning konstitutsiya va qonunlarda belgilangan huquq va erkinliklaridan emin-erkin foydalanishlariga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Madaniyat —insonlar faoliyat natijalarining majmui o'laroq o'zida ikki holatni, ya'ni madaniy statikani (madaniyatning nisbatan turg'un ko'rinishlari) va madaniy dinamikani, ya'ni madaniyatning o'zgaruvchan jihatini mujassamlashtiradi. Madaniyat

kishilarning yaratuvchilik faoliyati, maqsadli sa'y-harakatlari natijasida moddiy va ma'naviy qadriyatlar bo'lib, shaxsni shakllantirish va kamolotida muhim omil bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Ilmiy adabiyotlarda madaniyatni asosan moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'lish rasm bo'lgan. Madaniyatni moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'lish inson faoliyatining ikki asosiy sohasi —moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq. Moddiy madaniyat moddiy ishlab chiqarish bilan bog'liq ijtimoiy faoliyatning barcha sohalari va natijalarini o'z ichiga oladi. Moddiy madaniyatning muhim elementlari ishlab chiqarish, transport, aloqa vositalaridir. Moddiy madaniyat tushunchasi doirasiga texnika vositalari, uy-joylar, binolar, arxitektura obidalari, kiyim-bosh, uy-ro'zgor buyumlari, iste'mol vositalari deb ataladigan narsalar ham kiradi. Ma'naviy madaniyat ma'naviyishlabchiqarish, ijtimoiyongshakllariga ta'siro'tkazishbilanbog'liq

bo'lgan faoliyatning barcha sohasini qamrab oladi. Ma'naviy madaniyat namoyon bo'lishining turli shakllari, ya'ni tabiiy va ijtimoiy borlik to'g'risidagi har xil tasavvurlar va g'oyalar, nazariyalar, ta'limotlar, ilmiy bilimlar, san'at asarlari, axloqiy va huquqiy normalar, falsafiy, siyosiy qarashlar, mifologiya, din va h.k. ana shunday faoliyat natijasidir. Moddiy va ma'naviy madaniyat bir-biri bilan uzviy bog'liq. Birinchidan, har ikkalasi ham madaniyatning uzviy, o'ziga xos udumlari ekanligini unutmaslik kerak, ikkinchidan, inson faoliyatining mahsuli bo'lgan ko'pgina narsalar ham aqliy, ma'naviy, ham jismoniy mehnat natijasi sifatida paydo bo'ladi. Madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi vorisiylik an'alariga bog'liq bo'lib o'zidan oldingi avlodlar yaratgan qadriyatlarni o'zlashtirishdan boshlanadi va yangi qadriyatlar yaratish yo'lida tayanch vazifasini o'taydi. Ana shu ikki jarayon —eskilik bilan yangilik o'rtasidagi ob'ektiv zaruriy bog'lanish vorislik deb ataladi. Lekin bunda taraqqiyotga, xizmat qiladigan progressiv vorislikni unga to'siq bo'ladigan reaksiyon vorislikdan farqlash lozim bo'ladi. Madaniyatga ijobiy (pozitiv) va salbiy (negativ) ta'sir etuvchi vorislik ham mavjud.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy O‘zbekiston jamiyatida din va ma’naviyat ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, ma’rifatli jamiyatni shakllantirish va yosh avlod tarbiyasida hal qiluvchi o‘rin tutmoqda. Ularning uyg‘unligi milliy o‘zlikni asrash, tarixiy xotirani jonlantirish va yangi avlodni sog‘lom fikrli, vatanparvar, bilimli insonlar sifatida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham din va ma’naviyat sohasidagi islohotlarni davom ettirish, mavjud muammolarga ilmiy va tizimli yondashuv asosida yechim topish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” T.: “Ma’naviyat” 2008-y
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 31-modda
- 3.www.ziyo.uz 4.www.ziynet.com
5. <https://iiu.uz/uz/news/2044>